

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI**

*60910700 – Fundamental tibbiyot bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining*

*MALAKA TALABLARI*

**Toshkent-2025**



**ISHLAB CHIQLILGAN VA KIRITILGAN:**

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2025-yil «21» avgust dagi 316 - sonli buyrug‘i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo’nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<b>Umumiy tavsifi</b> .....	4
1.1	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatining turlari.....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	<b>Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar</b> .....	6
2.1.	Kasbiy kompetensiya toifalari.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar .....	9
2.3.	60910700 – Fundamental tibbiyot bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi.....	10
2.4.	Kvalifikatsiya.....	11
	<b>Bibliografik ma’lumotlar</b> .....	12
	<b>Kelishuv varag‘i</b> .....	13

## 1. Umumiy tavsifi

60910700 – Fundamental tibbiyot ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

### 1.1. Qo’llanish sohasi

#### 1.1.1. Malaka talabining qo’llanilishi.

Malaka talabi 60910700 – Fundamental tibbiyot ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha tibbiyot va farmasevtika oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### 1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta’lim yo’nalishi bo’yicha malaka talablari, o’quv reja va o’quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o’quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o’z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o’quv bo’limi boshlig’i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o’qituvchilari;

ta’lim yo’nalishining o’quv rejasi va o’quv dasturlarini o’zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo’yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim muassasalariga o’qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### 1.2 Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

#### 1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari:

professional ta’lim, O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, davlat boshqaruvi organlari, professional ta’limning davlat va nodavlat muassasalari, raqamli texnologiyalardan, jumladan, elektron tibbiy qaydlar va teletibbiyotdan samarali foydalanish, sog’liqni saqlash tizimidagi diagnostika, davolash va profilaktika muassasalarida tibbiy-ijtimoiy vazifalarni bajarish bo’yicha kompleks masalalarni yechishni o’z ichiga oladi.

#### 1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari; davlat boshqaruvi organlari; professional ta’limi muassasalari;

sog’liqni saqlash tizimidagi diagnostika, davolash va profilaktika bo’yicha davlat va xususiy muassasalari;

respublika, viloyat, shahar, tuman diagnostika, davolash va profilaktika bo’yicha davlat va xususiy muassasalari laboratoriyalari;

tabiatni muhofaza qilish bilan shug’ullanuvchi tashkilotlar, biolaboratoriyalar.

### 1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *laborator tashhislash;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *ilmiy-tadqiqot;*
- *pedagogik (professional ta’limi tizimida).*

### 1.2.4. Kasbiy vazifalari.

60910700 – Fundamental tibbiyot ta’lim yo’nalishi bo’yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo’lishi lozim:

#### **Laborator tashxislash:**

sog’liqni saqlash tizimining birlamchi bo’g’inida laboratoriya xizmatini tashkil qilish va olib borish;

shifoxona, klinika, dispanser, tibbiy markazlar diagnostik laboratoriya bo’limlarida laboratoriya xizmatini tashkil qilish va olib borish;

laborator tashxislash faoliyatida ilg’or, zamonaviy laboratoriya usullarini joriy etish;

laborator tashxislash chora-tadbirlarini tashkillashtirish bo’yicha to’liq hajmdagi zaruriy ko’nikmalarga ega bo’lgan mustaqil amaliy faoliyatni amalga oshirish.

#### **Tashkiliy-boshqaruv:**

fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O’zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga;

dunyoqarash bilan bog’liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo’lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

Vatan tarixini bilishi, ma’naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o’z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g’oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo’lishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo’yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo’lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda xayotda va o’z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

axborot yig’ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo’lishi, o’z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

tegishli bakalavriat yo’nalishi bo’yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo’lishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o’z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

sohaga oid innovasiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etish;

bajarayotgan faoliyati bo’yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash;

mehnat jarayonida xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha metodika va tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo‘lishi;  
atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;  
namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo‘llash;  
umumiy klinik, biokimyoviy, mikrobiologik, immunologik, molekulyar-genetik va boshqa laboratoriyalarda, sog‘liqni saqlash korxonalarida kasbiy faoliyatiga taalluqli zavod va korxonalarda belgilangan tartibda faoliyat ko‘rsatish;  
pullik ta’lim xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;  
ixtisoslikka mos mavzu bo‘yicha turli xizmatlarni ko‘rsatish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

### **Ilmiy-tadqiqot:**

kichik ilmiy xodim va yordamchi lavozimlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishi;  
ilmiy-uslubiy va boshqa texnik ishlarini bajarish;  
ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (ta’lim yo‘nalishi xususiyatlariga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish;  
ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalarni tashkil etish hamda ilmiy-tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashish;  
ilmiy va ilmiy-uslubiy faoliyat turlari bo‘yicha axborot-resurs kataloglarini tuzish va ulardan foydalanish;  
mavzu (topshiriq) bo‘yicha ilmiy-texnikaviy ma’lumotlarni yig‘ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan malumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;  
tibbiy-biologik fanlari sohasiga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish hamda ilg‘or ilmiy-tadqiqot natijalarni va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish bo‘yicha faoliyat olib borish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

### **Pedagogik (professional ta’lim tizimida):**

professional ta’lim muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo‘nalishida nazarda tutilgan o‘quv fanlari bo‘yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarni o‘tkazish;  
o‘quv fanlarini o‘qitish uslubiyotini egallash;  
zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish;  
o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha darslarni o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-uslubiy hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;  
o‘qitilayotgan fan bo‘yicha mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun o‘qitishning texnik vositalaridan foydalanish;  
mustaqil ta’lim va ijodiy izlanish natijasida o‘qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi uslublar, vositalar va shakllar tizimida o‘z-o‘zini muntazam takomillashtirib borish.

## **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

**2.1. Kasbiy kompetensiyalar ro‘yxati quyidagi kompetensiya toifalari asosida shakllantiriladi:**

Tibbiy bilimlar;  
 Amaliy ko’nikmalar va klinik fikrlash;  
 Shaxslararo muloqot va kommunikatsiya;  
 Etika va empatiya;  
 Oilaviy shifokorning shaxsiy rivojlanishi;  
 Uzlüksiz kasbiy rivojlanish;  
 Jamoat salomatligini saqlash.

Kompetensiya toifalari	Kod	Kompetensiya
Tibbiy bilimlar (TB)  Tibbiy bilimlarni egallash	TB.1	Odam organizmining tuzilishi va funksiyalari, normal anatomik va fiziologik rivojlanishini bilish (barcha yosh toifalari).
	TB.2	Kasalliklarning qiyosiy tashxisini bilish
	TB.3	Organizm struktur-funksional o’zgarishlari asosida kasalliklarning xavf omillari, salomatlik determinantlarini (genetika/irsiyat, ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, xulq-atvor omillari va boshqalar) bilish
	TB.4	Laborator-instrumental tekshiruv usullarini va tahlil qilishni bilish
	TB.5	Tibbiy muassasalarda tibbiy laboratoriya xizmati faoliyati va ularda klinik laboratoriya tekshiruvlarni nazorat qilish meyoriy, uslubiy xujjatlari, laborator tekshiruvlar sifatini nazorat qilish, normativ laborator xujjatlarni yuritish
	TB.6	Klinik protokollar va tavsiyalar asosida bemorlarga yordam ko’rsatish qoidalarini bilish
	TB.7	Umumiy qon tahlilini tekshirish, qon va qon hujayralarining umumiy xususiyatlari, gemoglobin, eritrotsitlar, retikulotsit, trombosit, leykotsitlarning miqdori, turlari, leykotsitar formulani sanash, gemogrammadagi o’zgarishlar
	TB.8	Kasalliklarni birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktikasini bilish
	TB.9	Nomedikamentoz davolash asoslarini bilish (sog’lom ovqatlanish, jismoniy faollik, chekish va semizlik bilan kurashish va b.) va aholiga sog’lom hayot tarzi haqida ma’lumot berishni bilish
	TB.10	Aholining alohida guruhlarida biologik, psixologik, ijtimoiy va xulq-atvor o’zgarishlarini bilish (homiladorlar, imkoniyati cheklangan shaxslar, onkologik bemorlar va boshqalar)
Amaliy ko’nikmalar va klinik fikrlash (AK)  Bemorlarni olib borishda amaliy va diagnostik ko’nikmalarni namoyon qilish	AK.1	Peshob ajratish tizimi, odam tanasida buyrak faoliyati laborator diagnostikasi, peshob hosil bo’lishi, peshobning umumiy tahlili, peshobning fizik va kimyoviy xususiyatlari, peshob cho’kmasining mikroskopiyasi, Nicheporenko, Adiss-Kakovskiy, Reberg, Zimniskiy peshob sinamalari
	AK.2	Gematologik analizatorning ishlash prinsipi, gematologik analizatorida umumiy qon tahlilini bajarish
	AK.3	Anemiyalar, o’tkir va surunkali leykozlar laborator diagnostikasi
	AK.4	Sitologik tekshirishlarning ahamiyati, sitologik laboratoriya tuzilishi va tashkil qilinishi, sitologik laboratoriyalar turlari
	AK.5	Sitologik tekshirish uchun biologik material tanlash, material olish usullari, sitologik preparatlar tayyorlash, fiksatsiya qilish va bo’yash texnikasi
	AK.6	O’sma oldi va o’sma hujayralari sitologik belgilari, yalig’lanish jarayoni morfologik surati, bachadon bo’yni patologiyasini sitologik tekshirish
	AK.7	Qon ivish tizimi, tomir-trombositar va koagulyatsion gemostaz, gemostaz ichki va tashqi yo’llari, gemostaz bosqichlari, qon ivish tizimi patologiyasi, tasnifi, etiologiyasi, patogenezini, qon ivish tizimini tekshirish usullari, klinik laborator diagnostikasi

	AK.8	Bioximik tekshirish usullari, bioximik tekshiruvlarning sifat nazorati, nazorat va kalibrator materiallari
	AK.9	Yakuniy nuqta usulida bioximik analizatorni dasturlash, kinetik usulda bioximik analizatorni dasturlash, bioximik analizatorni kalibrlash
	AK.10	Oqsil almashinuvi, uglevod almashinuvi, fermentlar, bilirubin va uning fraksiyalari, mineral moddalar almashinuvi, suv-tuz almashinuvini va kislota-asos muvozanatini laborator tekshirish, lipidlarni tekshirish usullari
	AK.11	Buyrak kasalliklari, jigar kasalliklari, oshqozon osti bezi kasalliklari, yurak kasalliklarining laborator diagnostikasi
	AK.12	Biokimyoviy analizatorning ishlash prinsipi, biokimyoviy analizatorni ishlatish yo’riqnomasi, biokimyoviy analizatorni kalibrovka qilish prinsipi, biokimyoviy analizatorni dasturlash
	AK.13	Peshob analizatorining ishlash prinsipi, umumiy peshob tahlili, peshob analizatorida peshob tahlilini bajarish
	AK.14	Koagulometrda ishlash, koagulogrammani bajarishda sifat nazorati, koagulometrda ishlash prinsipi, koagulometrda koagulogramma tahlilini bajarish
	AK.15	Immunoferment analizatorida ishlash prinsipi, immunoferment analiz bajarish, immunoferment analizatorida ishlash prinsipini o’zlashtirish
	AK.16	Polimeraz zanjirli reaksiyada tahlili, polimeraz zanjirli reaksiyada tahlilni bajarish prinsipini
	AK.17	Mikroskop tuzilishi va ishlashi, mikroskopda ishlash prinsipini o’zlashtirish
	AK.18	Genetik kasalliklar laborator diagnostikasi
	AK.19	Qon patologiyasi shakllanish molekulyar-xujayraviy mexanizmlari, DNKni qon tomchisidan ajratib olish
	AK.20	Qon yaratish tizimi, suyak ko’migi hujayralari morfologik va funksional xarakteristikasi
	AK.21	Qon guruhini aniqlash, rezus faktorni aniqlash borasida ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko’nikmalariga ega bo’lishi kerak
<p><b>Shaxslararo muloqot va kommunikatsiya (ShM)</b> Bemorlar, oila, hamkasblar va jamoa a’zolari bilan samarali muloqot</p>	ShM.1	Profilaktika, diagnostika va davolash maqsadlariga erishish uchun bemorga yo’naltirilgan samarali muloqot va shaxslararo muloqot ko’nikmalaridan foydalanish va namoyish etish
	ShM.2	Etika me’yorlariga rioya qilgan holda bemorlar va ularning yaqinlariga qo’yilgan tashxis va davolash rejasini aniq tushuntirish
	ShM.3	Bemorlar va ularning oilalariga ma’lumot berish, maslahat berish va o’rgatish
	ShM.4	Jamoada, hamkasblar bilan, boshqa yo’nalishdagi mutaxassislar bilan muloqot qilganda SHM ko’nikmalarini qo’llash
	ShM.5	Bemorlarni tashxislashda ishni optimallashtirish va qaror qabul qilish uchun raqamli teletibbiyot texnologiyalaridan foydalanish
<p><b>Etika va empatiya (EE)</b> Bemorlar va aholi bilan o’zaro munosabatlarning axloqiy tamoyillariga, empatiyaga yo’naltirilgan aholiga xizmat ko’rsatish amaliyoti</p>	EE.1	Jinsi, yoshi, millati, madaniyati, dini, nogironligi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va boshqalardan qat’i nazar, teng, xolis munosabatni va hurmatni namoyish etish
	EE.2	Insonparvarlik, empatiya, hamdardlik, sezgirlik va bemorlar va ularning qonuniy vakillariga nisbatan halollik ko’rsatish.
	EE.3	Mustaqillik, maxfiylik, adolat, tenglik va xabardor qilingan rozilikka oid axloqiy tamoyillarga sodiqlikni namoyish qilish
	EE.4	Bemorning shaxsiy manfaatlaridan ustun bo’lgan ehtiyojlari va ehtiyojlari uchun mas’uliyat ko’rsatish
<p><b>Shaxsiy rivojlanish (ShR)</b> Tibbiy amaliyot uchun muhim bo’lgan shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun zarur bo’lgan ko’nikmalarni namoyon qilish</p>	ShR.1	Shaxsiy kompetentlik doirasida ishlash, o’zining funksional majburiyatlarini bajara olmaslik sabablarini bilish
	ShR.2	Qarorlarni qabul qilishda hamkasblarda ishonch xissini oshiruvchi ishonch va javobgarlikni namoyon qilish
	ShR.3	Odob-ahloq me’yorlarini bilish, stressni boshqara olish, qaror qabul qilish, o’z imiji ustida ishlash va nizoli holatlarni boshqara olish

<b>Uzluksiz kasbiy rivojlanish (UKR)</b>  Uzluksiz kasbiy rivojlanish va malaka oshirishga tarafdorlik va qobiliyatni namoyon etish	UKR.1	Shaxsiy kompetentlik doirasida o‘z bilimi, klinik ko‘nikmalarini yangilab borish.
	UKR.2	Shaxsiy ehtiyojga ko‘ra malakasini oshirish orqali ish samaradorligini oshirish uchun maqsad va strategiyalarni ishlab chiqish
	UKR.3	O‘z bilimi va ko‘nikmalarini uzluksiz oshirib borish
	UKR.4	Bemorlar va aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun xalqaro ilmiy, dalillarga asoslangan bazani, ilmiy tadqiqot natijalarini topish, baholash va qo‘llash
	UKR.5	Axborot resurslarida ishlash, yangi bilimlarni tahlil qilish va kasalliklarni tashxislash, oldini olish protokollari hamda SOM (standart operatsion muolajalar) protokollarini o‘z amaliyotiga joriy etish. Dalillarga asoslangan texnologiyalar yoki xizmatlarni tatbiq qilish
<b>Jamoat salomatligi (JS)</b>  Bemorlar va aholiga optimal xizmatni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tibbiy yordam ko‘rsatish tizimi va sog‘liqni saqlashni tashkil etish to‘g‘risidagi bilimlarni namoyish etish	JS.1	Sog‘liqqa ta’sir qiluvchi omillarni, shu jumladan tarkibiy va ijtimoiy determinantlarni, aholi o‘rtasida kasalliklar, asoratlar va nogironlikning oldini olishni aniqlash va tegishli vazirlik va idoralarni xabardor qilish
	JS.2	Sog‘liq muammolarini, xavf omillarini, davolash strategiyasini va profilaktika choralarini aniqlash uchun epidemiologiya va biotibbiyot statistikasi tamoyillarini bilish
	JS.3.	Sog‘liqni saqlash tizimida bemorlarni parvarish qilishni muvofiqlashtirish uchun professional jamoada ishlash
	JS.4	Bemorlar va aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifati va samaradorligini oshirish uchun tizimli va jamoaviy yondashuvdan foydalangan holda klinik amaliyotni doimiy ravishda takomillashtirishda ishtirok etish
	JS.5	Bemorlarga yetkaziladigan zararni kamaytirishga qaratilgan xavfsizlik choralarini ko‘rish
	JS.6	Bemorlarga va/yoki aholiga parvarish va xizmat ko‘rsatishda moliyaviy va resurs xarajatlarini hisobga olish hamda xavf va foyda nisbatini tahlil qilish
	JS.7	Profilaktik tadbirlarni integratsiya qilish, kasalliklar haqida ma’lumot berish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish
	JS.8	Sog‘liqni saqlash sohasini moliyalashtirish tizimlari (shu jumladan, Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi, kafolatlangan tibbiy xizmatlar paketi) bilan ishlashni bilish.

## 2.2. Kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar:

Talabalarni kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi;

Davolash ishi ta’lim yo’nalishi bo‘yicha o‘quv rejasidagi majburiy fanlar blokiga bevosita kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta’minlaydigan fanlar;

Tanlov fanlari blokiga ta’lim yo’nalishi doirasida mutaxassislikdan kelib chiqib, chuqurlashtirilgan qo‘shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek talabalarning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondoshuvlari va iqtidorini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar kiritiladi.

Ta’lim yo’nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

1. O‘quv tanishuv amaliyoti;

2. Ishlab chiqarish amaliyoti;
3. Bitiruv oldi amaliyoti.

**2.3. 60910700 – Fundamental tibbiyot bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:**

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>6300</b>	<b>210</b>	
1.01	O‘YT1104	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	FSB1404	Falsafa	120	4	4
1.03	DIN1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.04	O‘RT O‘TSQ TXT11208	O‘zbek (rus) tili. O‘zbek tilining sohada qo‘llanilish. Tibbiyotda xorijiy til	240	8	1,2
1.05	TAT1104	Tibbiyotda axborot texnologiyalari	120	4	1
1.06	MTMS1304	Matematika va matematik statistika	120	4	3
1.07	TBUG11208	Tibbiy biologiya. Umumiy genetika	240	8	1,2
1.08	LTTT1104	Lotin tili va tibbiy terminologiya	120	4	1
1.09	UTR1404	Umumiy va tibbiy radiobiologiya	120	4	4
1.10	UFBF1404	Umumiy fizika va biofizika	120	4	4
1.11	FZ13407	Normal fiziologiya	210	7	3,4
1.12	TK11207	Tibbiy kimyo	210	7	1,2
1.13	OAN112311	Odam anatomiyasi	330	11	1,2,3
1.14	GS12308	Gistologiya, sitologiya, embriologiya	240	8	2,3
1.15	LK1202	Laboratoriya ishiga kirish	60	2	2
1.16	BK134509	Biokimyo	270	9	3,4,5
1.17	FR1504	Farmakologiya	120	4	5
1.18	GTEK1403	Gigiyena. Tibbiy ekologiya	90	3	4
1.19	PAN1504	Patologik anatomiya	120	4	5
1.20	PFZ1504	Patologik fiziologiya	120	4	5
1.21	STVF1703	Sud tibbiyoti, vrach faoliyatini huquqiy asoslari	90	3	7
1.22	IKEN15608	Ichki kasalliklar. Endokrinologiya	240	8	5,6
1.23	YKFT1604	Yuqumli kasalliklar. Ftiziatriya	120	4	6
1.24	PD1703	Pediatriya	90	3	7

1.25	GM1804	Gematologiya	120	4	8
1.26	NTG1703	Nevrologiya, tibbiy genetika	90	3	7
1.27	AGUR1804	Akusherlik va ginekologiya. Urologiya	120	4	8
1.28	ON1603	Onkologiya	90	3	6
1.29	MG1804	Molekular genetika	120	4	8
1.30	PSP1203	Psixologiya va pedagogika	90	3	2
1.31	KPSKP1304	Kasbiy psixologiya. Kasbiy pedagogika	120	4	3
1.32	TAT1503	Ta’limda axborot texnologiyalari	90	3	5
1.33	TT1603	Ta’lim texnologiyalari	90	3	6
1.34	KTM1603	Kasbiy ta’lim metodikasi	90	3	6
1.35	KB17807	Klinik biokimyo	210	7	7,8
1.36	MB13408	Mikrobiologiya, virusologiya, immunologiya	240	8	3,4
1.37	LITT1703	Laboratoriya ishini tashkil etish	90	3	7
1.38	KG1604	Klinik gemostaziologiya	120	4	6
1.39	ST1806	Sitologik tashxis asoslari	180	6	8
1.40	KLTIMT15-816	Klinik laboratoriya tashxisi. Immunoferment tahlili	480	16	5,6,7,8
1.41	TIT1703	Tadqiqot ishlarini tashkillashtirish va rejalashtirish	90	3	7
1.42	KIM1704	Klinik immunologiya	120	4	7
<b>2.00</b>	<b>TF2</b>	<b>Tanlov fanlar</b>	<b>390</b>	<b>13</b>	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	390	13	3,4 5,6,8
		<b>Jami</b>	<b>6690</b>	<b>223</b>	
	MM1-417	<b>Malakaviy amaliyot</b>	510	17	1,2,3,4,5,6,7
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

**2.4. Kvalifikatsiya:** Fundamental tibbiyot mutaxassisi, vrach laborant

## Bibliografik ma’lumotlar

UDK:61:796/799

Guruh S 73

Oks 75.0

---

### **Tayanch so‘zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta’lim yo‘nalishi, kasbiy faoliyat ob’yekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriyatning asosiy o‘quv rejasi va fan dasturlari, malaka, amaliyot, attestasiya, laboratoriya, laborator diagnostika usullari, umumiy klinik tekshirish usullari, biokimyoviy tekshirish usullari, sitologik tekshirish usullari, molekulyar-genetik tekshirish usullari, mikrobiologiya va virusologiya, biokimyo, molekulyar biologiya, biofizika, immunoferment tekshirish usullari, gematologik tekshirish usullari, immunologik tekshirish usullari.

Ishlab chiqaruvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta’lim muassasalari  
hamda kadrlar este’molchilari

**ISHLAB CHIQILGAN:**

Toshkent davlat tibbiyot universiteti,  
“Sog’liqni saqlash” ta’lim sohasi bo’yicha  
muvofiqlashtiruvchi soha Kengashi raisi,

Rektor  Sh.A.Boymuradov

2025-yil “ \_\_\_\_\_ ”



**KELISHILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor  A.Xoliqov

2025-yil “ \_\_\_\_\_ ”

M.O’.



O‘zbekiston Respublikasi  
Sog’liqni saqlash vazirligi

Vazir  
o‘rinbosari  E.Basitxonova

2025-yil “ \_\_\_\_\_ ”

M.O’.



O‘zbekiston Respublikasi Sog’liqni  
saqlash vazirligi  
Fan-ta’lim va innovatsiyalar  
boshqarmasi

Boshliq  O'.Ismailov

2025-yil “ \_\_\_\_\_ ”

M.O’.



Toshkent shahar sog’liqni saqlash  
bosh boshqarmasi

Boshliq  B.Isabekov

2025-yil “ \_\_\_\_\_ ”

M.O’.

